

ISLOM SIVILIZATSIYASI I XALQARO FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Boshlanishi 1-betda

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Muqaddas Qurʼoni karimning “Iqrol” yaʼni “Oʻqi!” degan abadiy daʼvati dunyodagi barcha ezgu niyatli kishilarning bugungi va kelajak avlodlar baxt-saodatini koʻzlab amalga oshirayotgan olijanob harakatlari uchun yoʻlchi yulduz vazifasini bajaradi. Oradan necha asrlar oʻtganiga qaramasdan, ushbu ilohiy chorlovning teran maʼno-mazmuni oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

Aksincha, jadal oʻzgarishlar va texnologiyalar mislsiz surʼatlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda bu chaqiriq yanada baralla yangrab, aynan ilm-maʼrifat, maʼnaviy va intellektual taraqqiyot jamiyat ravnaqining hal qiluvchi kuchi ekanini butun bashariyatga eslatib turibdi.

Bu muborak kalom Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining asosiy darvozasi peshtoqiga bitilgan boʻlib, uning oliy maqsadini — islom sivilizatsiyasining bebaho merosini asrash va chuqur oʻrganish, shu asosda dunyo xalqlari oʻrtasida doʻstlik va hamkorlikni har tomonlama mustahkamlashdek ulugʻ missiyasini aniq belgilab beradi. Biz uchun mazkur Markaz xalqimizning tarixiy xotirasi ramzi, buyuk ajdodlarimiz merosiga boʻlgan chuqur ehtirom ifodasi, ayni paytda Yangi Oʻzbekistonning kelajakka qaratilgan shiddatli itilishining yorqin timsolidir.

Shu bilan birga, u ochiq intellektual makon boʻlib, oʻz hayotini ilm-fanni rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarini asrash va kelgusi nasllarga bezavol yetkazishga bagʻishlagan dunyodagi barcha maʼrifatparvar insonlarni, olim va tadqiqotchilar, diniy arboblari va mutaxassislarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Eʼtiborlisi shundaki, Markaz qisqa vaqt ichida oʻtmish bilan kelajakni, Sharq bilan Gʻarbn, qadim anʼanalar bilan zamonaviy ilmiy yutuqlarni oʻzaro bogʻlaydigan intellektual koʻprikka aylandi. Shu bois, biz Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumini turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar,

universitetlar va muzeylar, kutubxonalar va tadqiqot institutlarining intellektual salohiyatini birlashtiruvchi global hamkorlikning yangi bosqichi deb baholaymiz va bu borada qoʻshma harakatlar dasturi qabul qilinishiga umid bildiramiz.

Oʻzbekiston xalqaro hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan qoʻshma loyiha va tashabbuslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga doimo tayyor. Buning uchun Islom sivilizatsiyasi markazida fundamental ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish, xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etish, qoʻshma nashrlar tayyorlash, taʼlim dasturlarini amalga oshirish hamda jahonning yetakchi ilmiy va madaniy markazlari bilan keng koʻlamli gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Biz ilm va maʼrifat zamonamizning eng buyuk birlashtiruvchi kuchi ekaniga, uning bunyodkorlik asosi, tinchlik va barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevori boʻlib qolishiga qatʼiy ishonamiz va barchangizni shu ezgu maqsad yoʻlida hamkorlikka chaqiramiz.

Muhtaram doʻstlar!

Sizlar forum doirasida Samarqand va Termiz singari tarixiy shaharlarimizda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosiga bagʻishlangan anjumanlarda ishtirok etar ekanisiz, yurtimizda diniy-maʼrifiy qadriyatlarini tiklash va asrash, tinchlik va bagʻrikenglikni mustahkamlash, umuman, Yangi Oʻzbekistonni barpo etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarimiz bilan yaqindan tanishasiz. Mehnatkash va mehmondoʻst xalqimiz vakillari bilan boʻladigan samimiy uchrashuv hamda muloqotlar sizlarni yangi ilmiy tadqiqotlar va badiiy asarlar, madaniy-gumanitar loyihalar yaratishga ilhomlantiradi, deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin qalbdan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli faoliyatingizga rivoj, forum ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti

RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH BOʻYICHA ISHLAR TAQDIMOT QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Qolaversa, davlat boshqaruvida maʼlumotlar bazalari va axborot tizimlari turli idoralar kesimida tarqoq holda shakllangani, ularni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida yagona yondashuv yetishmayotgani koʻrsatib oʻtiladi.

Shu bois, davlat boshqaruvining yagona integratsiyalashgan raqamli platformasini bosqichma-bosqich joriy etish taklif qilindi. Mazkur tizim orqali hudud iqtisodiyoti, investitsiya, ekologiya, xavfsizlik masalalari, aholini qiyinayotgan muammolar, mahallalarning farovonlik darajasi, fazoviy maʼlumotlar, obyektlar va xarita qatlamlari yagona platformada aks ettiriladi.

Platforma sunʼiy intellekt texnologiyalari asosida maʼlumotlarni tahlil qilish, hududlar kesimida muammolarni barvaqt aniqlash, qarorlar ijrosini monitoring qilish, resurslarni toʻgʻri yoʻnaltirish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari joriy yilda ushbu raqamli boshqaruv tizimini poytaxtda, kelgusi yildan esa barcha hududlarda joriy qilish zarurligini taʼkidladi.

Taqdimotda tovar va xizmatlarni yagona milliy tasniflash tizimini ishga tushirish masalasi ham koʻrib chiqildi. Hozirda bojxona, soliq, statistika va boshqa idoralar turli tovar klassifikatorlaridan foydalanmoqda. Bu esa biznes xarajatlarining ortishi, hisobotlar aniqligi pasayishi va idoralararo maʼlumot almashinuvida qiyinchiliklarga sabab boʻlmoqda.

Yagona milliy tasniflash tizimi joriy etilsa, tadbirkorlar uchun ortiqcha byurokratik jarayonlar qisqardi, davlat idoralari oʻrtasida maʼlumot almashinuvi soddalashadi, statistik hisobotlarning aniqligi oshadi.

Shuningdek, milliy navigatsiya tizimini yaratish taklifi bildirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur yoʻnalishda asosan xorijiy platformalardan foydalanilayotgani qayd etildi. Milliy navigatsiya tizimi geomaʼlumotlarni yagona standart asosida shakllantirish, transport, logistika, tezkor xizmatlar, shaharsozlik va davlat xizmatlarini sifatli tashkil etishga xizmat qiladi.

Taqdimotda IT sohasi eksporti va startaplar ekotizimini rivojlantirish rejalari ham koʻrib chiqildi. 2030-yilgacha IT eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, 5 mingga faol startap tashkil etish va 2 milliard dollar investitsiya jalb qilish maqsad qilingan.

Xalqaro “StartupBlink” reytingida Oʻzbekiston 31 pogʻona yuqorilab, dunyodagi eng tez oʻsayotgan startap ekotizim sifatida baholangani, Toshkent shahri Markaziy Osiyo shaharlari orasida 1-oʻrinni egallagani, Samarqand va Fargʻona ilk bor dunyoning TOP-1000 startap shaharlari reytingiga kirgani qayd etildi.

Bu borada “Talent Hub” dasturi ishga tushirilishi belgilangan. U orqali xorijiy mutaxassislar va investorlarga masofadan korxona, bank hisobraqami va xalqaro karta ochish imkoniyati yaratiladi. IT-Park rezidentlarining xodimlari uchun soliq imtiyozlarini 2040-yilgacha uzaytirish, “IT visa” va “Zero Risk” dasturlarini kengaytirish taklif qilindi.

Shuningdek, IT eksporchi korxonalarga oylik ish haqi xarajatlarining bir qismini qoplab berish, xalqaro sertifikatlash xarajatlarini kompensatsiya qilish, xorijiy buyurtmachilar va mutaxassislarni jalb etish uchun relokatsiya xarajatlarini qisman qoplash kabi qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari koʻzda tutilmoqda.

Buxoro va Fargʻonada 20 tadan ortiq startaplar uchun akseleratsiya dasturini tashkil etish, startaplarni yirik xalqaro bozorlarga olib chiqish boʻyicha ham takliflar taqdim etildi.

Yigʻilishda telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Soʻnggi yillarda aholi yashash maskanlarini telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 41 foizdan 98 foizga yetdi, umumiy internet oʻtkazish qobiliyati 65 barobar oshdi.

Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlar uchun telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish hali yetarlicha jozibador emasligi, olis hududlarda simli internetdan foydalanuvchilar ulushi juda pastligi koʻrsatib oʻtiladi.

Sohada biznes muhitini yaxshilash maqsadida telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalash va qurish boʻyicha mavjud 2 ta litsenziya turini bittaga birlashtirish, litsenziya berish muddatini 25 ish kunidan 10 ish kuniga qisqartirish taklif qilindi.

Koʻp qavatli uylarni yuqori tezlikdagi internetga ulanish texnologiyasi asosida loyihalash va qurish talabi joriy etiladi. Bu yangi uy-joylarda optik tolali internet infratuzilmasini avvaldan hisobga olish, aholiga sifatli raqamli xizmatlar koʻrsatish imkonini beradi.

Sohada oʻz ishini boshlamoqchi boʻlgan yoshlar uchun “Kelajak tadbirkori” dasturi doirasida 2 yil imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 15 foiz stavkada 530 million soʻmgacha kreditlar ajratish taklif qilindi. Olin va chekka hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar uchun imtiyozli tarif rejalari ishlab chiqiladi.

Prezidentimiz takliflarni maʼqullab, davlat idoralari maʼlumotlarini integratsiya qilish, raqamli xizmatlar sifatini oshirish, kiberxavfsizlik va shaxsiy maʼlumotlar himoyasini taʼminlash, sohada xususiy sektor uchun yanada qulay muhit yaratish boʻyicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

OʻZA

Boshlanishi 1-betda

Ana shu ezgu maqsadlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yilning 7-11-iyul kunlari Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida “Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi” tashkil etildi. Besh kun davom etadigan nufuzli anjuman uchta shaharni qamrab oladi hamda islom sivilizatsiyasi tarixi, qoʻlyozmalar, muzeyshunoslik, madaniy meros, hadis ilmi, aqida, kalom, arxeologiya va madaniy diplomatiya kabi dolzarb mavzular muhokama qilnadigan eng yirik xalqaro maydonga aylanadi.

Mazkur nufuzli anjumanda 40 dan ortiq mamlakatdan taniqli olimlar, xalqaro tashkilotlar vakillari, davlat va jamoat arboblari, vazirlar, muftiyalar, yetuk ulamolar, akademiklar, tadqiqotchilar, muzey va kutubxona rahbarlari ishtirok etmoqda.

Taʼkidlash joizki, forumning asosiy maqsadi — islom sivilizatsiyasining haqiqiy mazmun-mohiyatini ochib berish, uning ilm-fan, madaniyat va maʼnaviy taraqqiyotga qoʻshgan ulkan hissasini namoyon etish, shuningdek, zamonaviy dunyoda tinchlik, bagʻrikenglik va maʼrifat gʻoyalari keng targʻib qilishdan iborat.

Forum, shuningdek, Oʻzbekistonning boy tarixiy va ilmiy merosini xalqaro ilmiy jamoatchilikka tanitish, Islom sivilizatsiyasi markazini global ilmiy-maʼrifiy platforma sifatida namoyon etish hamda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini keng yoritishga xizmat qiladi.

Mazkur tadbir davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yilda BMTning Nyu-York va Jeneva shaharlaridagi qarorgohlarida, shuningdek, UNESCOning Parijdagi ofisida islom sivilizatsiyasi va ajdodlarimiz merosiga bagʻishlab oʻtkazilishi rejalashtirilayotgan maxsus taqdimotlar uchun muhim tayyorgarlik bosqichi ham hisoblanadi.

Nufuzli xalqaro anjumaning tantanali ochilish marosimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning forum ishtirokchilariga murojaatini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi — Spichrayteri Xayridin Sultonov oʻqib eshittirdi.

“Oʻzbekiston xalqaro hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan qoʻshma loyiha va tashabbuslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga doimo tayyor. Buning uchun Islom sivilizatsiyasi markazida fundamental ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish, xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etish, qoʻshma nashrlar tayyorlash, taʼlim dasturlarini amalga oshirish hamda jahonning yetakchi ilmiy va madaniy markazlari bilan keng koʻlamli gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Biz ilm va maʼrifat zamonamizning eng buyuk birlashtiruvchi kuchi ekaniga, uning bunyodkorlik asosi, tinchlik va barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevori boʻlib qolishiga qatʼiy ishonamiz va barchangizni shu

Xalqaro forum

ILM-MAʼRIFATGA TAYANGAN TARAQQIYOT YOʻLI

OʻZBEKISTON ISLOM SIVILIZATSIYASI BOʻYICHA DUNYO TARIXIDA YANGI SAHIFA OCHMOQDA



ezgu maqsad yoʻlida hamkorlikka chaqiramiz”, deyiladi tabrikda.

Shundan soʻng Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Diniy-maʼrifiy masalalar boʻyicha departamenti boshligʻi Muzaffar Komilov, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdulxoliqov, ICESCO Bosh direktori doktor Salim al-Malik, Oʻzbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar, Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, Shayxulislom Olloshshukur Poshozoda hamda boshqa nufuzli ulamolar soʻzga chiqdi.

Ular oʻz maʼruzalarida yangi Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda milliy maʼnaviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan tashabbuslarni yuksak baholadi.

— Bugun islom dunyosi uchun muhim tarixiy kundir. Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi xalqlarimiz va butun insoniyat

uchun xayrli boʻlishini tilab qolaman, — deydi Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, Shayxulislom Olloshshukur Poshozoda. — Soʻzim avvalida Ozarbayjon Prezidenti Janobi Oliylari Ilhom Aliyevning forum ishtirokchilariga yoʻllagan salomlarini yetkazmoqchiman. Oʻzbekiston Yaratganing lutfiga sohib boʻlgan ulugʻ maskanlardan biri. Asrlar davomida islom maʼrifatining chirogʻi boʻlgan. Eng ogʻir davrlarda ham mazkur nurni soʻndirishmagan. Oʻzbekiston tuprogʻining shon-shuhrati tillarda doston boʻlgan. Bugun oʻz tarixining porloq Uchinchi Renessans davrini boshlagan yangi Oʻzbekistonda Janobi Oliylari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi islom dinining ilmiy tadqiqotlarga sabab boʻlayotgani diqqatga sazovor ish. Davlat rahbarlarimizning chuqur siyosiy iroda va maʼnaviyati bilan ikki qardosh davlatning kelajagi yanada porloq boʻlishiga ishonchim komil.

Oʻzbekistonda tahsil olganim bois, bu tuproqning tarixi bilan yoshligimdan tanishman. Butun dunyodan ilm axtarib kelganlar uchun maʼrifat va ilm chirogʻini yoqqan Oʻzbekiston hadisilmi bilan musulmon olamiga tanilgan Imom Buxoriy hazratlarining yurti. Bugungi kunda esa shunday ulugʻ zot sharafiga muhtasham majmua barpo etgan va Imom Buxoriy ilmiy tadqiqot markazini tashkillashtirgan Janobi Oliylari Shavkat Mirziyoyevga chuqur minnatdorlik bildiraman.

ICESCO Bosh direktori Salim al-Malik ushbu forumga yuksak baho berib, uning mazmun-mohiyati faqat ilmiy anjuman bilan cheklanmasligini taʼkidladi.

— Bu tadbirga aynan Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mezbonlik qilayotgani bejiz emas, — deydi Salim al-Malik. — Chunki bu markaz bugun islom sivilizatsiyasining insoniyat taraqqiyotiga qoʻshgan ulkan hissasini dunyoga tanitayotgan, buyuk allomalar merosini xalqaro miqyosda targʻib qilayotgan eng muhim



maʼrifat maskanlaridan biri. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan ushbu muhtasham markaz bugun nafaqat buyuk oʻtmishning yorqin timsoli, balki kelajakni qurishga xizmat qiladigan, sivilizatsiyalar va madaniyatlar oʻrtasida muloqotni



mustahkamlaydigan xalqaro maydonga aylandi.

Anjumanda soʻzga chiqqan Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdulxoliqov forumning mamlakatimiz va butun musulmon olami uchun ahamiyati haqida atroflicha toʻxtaldi.

— Mamlakatimiz tarixida birinchi marta islom sivilizatsiyasini har tomonlama oʻrganishga bagʻishlangan, turli davlatlar olim, vazir, muftiyarlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etadigan ulkan forumga mezbonlik qilyapmiz, — deydi Firdavs Abdulxoliqov. — Bu forum nafaqat Oʻzbekiston, balki butun islom olamining ilmiy-maʼrifiy hayotida muhim voqeaga aylanadi. Biz bu yerda faqat maʼruzalarni eshitish uchun emas, balki kelgusida amalga oshiriladigan qoʻshma tadqiqotlar, ilmiy loyihalar va madaniy hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

Forumning birinchi kungi yalpi majlislarida islom sivilizatsiyasining maʼnaviy merosi, yangi Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining xalqaro ilmiy-maʼrifiy platforma sifatidagi oʻrni, shuningdek, qoʻlyozmalarni asrash, muzeylar va kutubxonalar hamkorligini rivojlantirish kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi. Forum davomida Oʻzbekistondagi ilmiy-maʼrifiy markazlar va xorijning yetakchi ilmiy muassasalari oʻrtasida qoʻshma loyihalar, yangi ilmiy nashrlar, arxeologik kashfiyotlar, noyob qoʻlyozmalar va raqamli loyihalar taqdimoti oʻtkazildi.

Anjumaning muhim qismini Samarqand va Termiz shaharlarida boʻlib oʻtadigan xalqaro konferensiyalar tashkil etadi. Ular buyuk allomalarimiz — Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termizniyning boy ilmiy merosini har tomonlama oʻrganishga bagʻishlangani bilan ahamiyatli.

Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumining Toshkent deklaratsiyasi qabul qilinishi, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini 2027-2030-yillarda rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni qabul qilish, xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot markazlari va madaniy muassasalar oʻrtasida hamkorlik memorandumlari hamda kelishuvlar imzolalanishi rejalashtirilgan.

Shubhasiz, forum nafaqat Oʻzbekistonning ilmiy-maʼrifiy hayotida, balki xalqaro gumanitar hamkorlik tarixida ham muhim voqealardan biri sifatida oʻrin egallaydi. Anjuman Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan maʼrifatparvar davlat siyosati, ajdodlar merosini asrab-avaylash va uni butun insoniyat manfaati yoʻlida targʻib etishga qaratilgan ezgu tashabbuslarning yana bir yorqin namunasi boʻlib qoladi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

4

JARAYON

2026-yil 8-iyul, 137-son

2017-yildan buyon O‘zbekistonda Belarus kapitali ishtirokidagi korxonalar soni qariyb 12 barobar oshdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

Nuqtayi nazar

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu hafta Belarusga kutilayotgan tashrifi ikki tomonlama hamkorlikni yangi amaliy bosqichga olib chiqishi shubhasiz. Zero, so‘nggi yillarda ikki mamlakat munosabatlari aniq iqtisodiy mazmun bilan boyidi. Kun tartibi markazida sanoat kooperatsiyasi, hududlararo aloqalar, qo‘shma ishlab chiqarishlar va o‘zaro savdoni kengaytirish turibdi.

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar ikki tomonlama hamkorlik rivojiga amaliy turtki bermoqda. 2017-yildan buyon ikki mamlakat yetakchilari sakkiz marta uchrashdi. 2024-yil fevralida Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma bayonot qabul qilinib, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tayyorlandi.

2026-yil fevralda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus Bosh vaziri Aleksandr Turchinni qabul qildi. Uchrashuvda oliy darajadagi bo‘lajak davlatlararo tadbirlarga tayyorgarlik doirasida hamkorlikning yangi yo‘nalishlari belgilab olindi.

Amaliy ish ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya orqali olib borilmoqda. Komissiyaning 2026-yil may oyidagi 12-yig‘ilishida tomonlar hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashni boshladi va iyul oyining birinchi o‘n kunligida Minsk shahrida O‘zbekiston va Belarus 3-hududlararo forumini o‘tkazishga kelishib oldi.

Hududlararo hamkorlik ikki tomonlama kun tartibini kuchaytirmoqda. 2017-yildan buyon ikki mamlakat hududlari vakillarining 40 dan ortiq tashrifi amalga oshirildi. Korxonalar, sanoat maydonlari va ishbilarmon doiralar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar kengaymoqda.

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida ikki tomonlama bitim doirasida erkin savdo rejimi amal qiladi. Shuningdek, har ikki davlat MDH erkin savdo hududiga kiradi. SHHT, BRIKS va YOII kabi ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi muloqotni chuqurlashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Bu maydonlarda iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va transport bog‘liqligini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ilgari surilmoqda.

Savdo aloqalari dinamikasi

Xalqaro keskinlik, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar va dunyoning yetakchi iqtisodiyotlari savdo siyosatidagi o‘zgarishlar sharoitida davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni ijobiy dinamikani saqlab qolmoqda. 2017-2025-yillarda ikki tomonlama savdo hajmi 5,3 barobar oshib, 182,4 million dollardan 965 million dollarga yetdi.

O‘shish ikki yo‘nalishdagi yetkazib berishlar hisobiga ta‘minlandi. O‘zbekistonning Belarusga eksporti qariyb 7 barobar oshib, 27,4 million dollardan 186,5 million dollarga yetdi. Belarusdan import esa 5 barobar ko‘payib, 155 million dollardan 778,5 million dollarga yetdi.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zaro savdo 25 foiz o‘sb, 965 million dollarga yetdi. Bu avval belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga mos keladi.

Belarus O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari yigirmataligiga kiradi. MDH mamlakatlari orasida u O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida Rossiya va Qozog‘istondan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Keyingi bosqichda tovar aylanmasini 2030-yilga borib 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi turibdi. Buning uchun tomonlar qo‘shma dastur ishlab chiqishga kirishdi.

Savdo tarkibi o‘shish zaxiralari tovar nomenklaturasini kengaytirish va yuqori

O‘zbekiston – Belarus: SANOAT KOOPERATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI

Investitsiya va qishloq xo‘jaligi

Xurshid ASADOV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori o‘rinbosari

qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yetkazib berish bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. 2025-yilda O‘zbekistonning Belarusga eksporti asosini 39,3 foiz sanoat tovarlari, 22,1 foiz tayyor buyumlar va 18,6 foiz oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etdi. Mashina va transport uskunalar ulushi 5,7 foiz, kimyo mahsulotlari 4,7 foiz, xizmatlar 6,5 foiz bo‘ldi.

Belarusdan import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari (38,1 foiz), nooziq-ovqat xomashyosi (19,5 foiz), mashina va transport

sanoat tovarlari, tayyor buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, to‘qimachilik va mashinasozlik mahsulotlarining ayrim turlari eksportini kengaytirmoqda.

2030-yilga borib, 2 milliard dollarlik maqsadli ko‘rsatkichga chiqish barqaror eksport pozitsiyalarini kengaytirish, ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni kuchaytirish, mahsulotlarni sertifikatlash va korxonalar kooperatsiyasini rivojlantirishni talab etadi.

barqaror o‘ringa ega. Toshkent viloyatida “BELARUS” traktorlarini qo‘shma ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Minsk traktor zavodi bilan hamkorlikda Nurafshon shahrida “AGROMAX TECHNIC” MCHJ loyihasi rivojlanmoqda.

Bu yo‘nalishning amaliy ahamiyati mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash bilan bog‘liq. O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi texnikasi

Istiqbolli yo‘nalishlar

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining baholashicha, O‘zbekiston va Belarus hamkorligini yanada rivojlantirish uchun eng yuqori salohiyat ikki mamlakat imkoniyatlari bir-birini to‘ldiradigan tarmoqlarda jamlangan.

Agrosanoat sohasida imkoniyatlar, avvalo, O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari yetkazib

importi 410 million dollarga baholanadi, yillik talab esa qariyb 10 ming dona texnikani tashkil etadi. Yiliga 4 mingtagacha traktor ishlab chiqarish rejasini tayyor texnikani yetkazib berishdan mahalliyashtirish, servis, butlovchi qismlar ishlab chiqarish va sanoat bazasini kengaytirishga o‘tish imkonini beradi.

“Enco Group” tomonidan “Energokomplekt” kompaniyasi bilan hamkorlikda yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan hamkorlik fikrimizga yana bir yorqin misoldir. Loyiha Ohangaron tumanida mis klasterini rivojlantirish bilan bog‘liq va O‘zbekistonning xomashyoni chuqur qayta ishlash vazifasiga mos keladi. Bu eksport salohiyatiga ega tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi.

Qarshi shahrida davlatlarimiz hamkorligida yana bir qo‘shma korxona — “UzShoes” samarali faoliyat yuritmoqda. Loyiha charm-poyabzal sanoatida kooperatsiya imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu sohada O‘zbekiston xomashyo bazasi va ishlab chiqarish quvvatlariga, Belarus esa sanoat qayta ishlash va tayyor mahsulotni bozorga olib chiqish bo‘yicha tajribaga ega.

2026-yil may oyida Toshkentda ikki mamlakatning soha vazirlarlar o‘rtasida oziq-ovqat sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolangan. Amaliy kun tartibiga keyinchalik O‘zbekistonga maqsadli yetkazib berish uchun Belarusda chorvachilik klasterlarini tashkil etish masalasi ham kiritildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida hududlarni kompleks rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va sanoat salohiyatini kengaytirishda kichik va yoshlar sanoat zonalarini muhim drayver sifatida maydonga chiqmoqda. Ular tadbirkorlik uchun qulay sharoit, zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasi va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini taqdim etuvchi maxsus hududlardir.

Bu orqali yangi korxonalar tashkil etilish bilan birga aholi bandligi oshib, mahalliy ishlab chiqarish salohiyati mustahkamlanyapti. Xususan, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida kichik va yoshlar sanoat zonalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu hududlardagi loyihalar viloyat sanoatini rivojlantirish, import o‘rmini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va eng muhimi, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilaypti.

— Surxondaryo viloyatida 52 ta sanoat zonasi mavjud, shundan 34 tasi kichik, 18 tasi esa yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari. Ularda umumiy qiymati 813,2 milliard so‘mlik 543 ta loyiha joylashtirilishi hisobiga 3419 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Bu ko‘rsatkichlar hudud iqtisodiy salohiyati izchil o‘sb borayotganidan dalolat beradi, — deydi Surxondaryo viloyat hokimligi kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish direksiyasi bosh mutaxassisi Jasur Haydarov.

Termiz tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” massivida tashkil etilgan “Yangiobod

texnopark”i yoshlar sanoat zonasi bugun yosh tadbirkorlarning biznes g‘oyalarini ro‘yobga chiqarayotgan muhim maydonga aylanaypti. Jami 9 gektar maydonni egallagan sanoat zonasi 34 ta lotdan iborat bo‘lib, hozir ularning 32 tasida ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Yoshlar jamg‘armasi hisobidan tadbirkorlar uchun binolarni xarid qilishga 22,7 milliard so‘m, uskunalar sotib olish uchun esa 6,5 milliard so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

— Sanoat ipotekasi” mexanizmi orqali yaratilgan mazkur imkoniyatlar ishlab chiqarish sohasiga ko‘plab yosh tadbirkorlar kirib kelishida muhim omil bo‘lmoqda. Ulardan biri Jahongir Omonov. U texnopark hududida charm poyabzal ishlab chiqarish loyihasini yo‘lga qo‘yib, mahalliy bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni boshladi.

— Yaratilgan sharoitlar va imtiyozli moliyaviy ko‘mak loyihamizni qisqa muddatda amalga oshirish imkonini beryapti. Mahalliy xomashyo, ishchi kuchi mavjudligi ishimizni yengil, faoliyatimizni kengaytirishga sabab bo‘lyapti, — deydi tadbirkor.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 5 trillion 477 milliard 200 million so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi.

Bugungi kunda viloyatdagi kichik va yoshlar sanoat zonalarida umumiy qiymati qariyb 813

milliard so‘mlik 543 ta loyiha mavjud. Ularning ishlab chiqarish quvvati esa 473 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etadi. Joriy yil yanvar-may oylarida kichik va yoshlar sanoat zonalarida ishga tushirilgan 319 ta loyiha doirasida 84,7 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlandi. Shu bilan birga, 4 million 533 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qorayantoq mahallasi bir vaqtlar faqat qumliklardan iborat edi. Bugun esa mutlaqo yangi qiyofa kasb etib, “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi va unga tashqar maydonlarda qator ishlab chiqarish quvvatlari qad rostlamoqda.

— Bugungi kunda Jarqo‘rg‘on tumanida 4 ta sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Shundan 3 tasi kichik, 1 tasi esa yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasidir. Ularda umumiy qiymati

47,2 milliard so‘mlik 26 ta loyiha joylashtirilgan bo‘lib, 218 ta yangi ish o‘rmi yaratilgan, — deydi Surxondaryo viloyat hokimligi sanoat zonalarini boshqarish direksiyasi bosh mutaxassisi Faxriddin Mengatov.

Tumanda sanoat zonasida mebel ishlab chiqarish loyihasi ham muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Loyihaning umumiy qiymati 1,5 milliard so‘m bo‘lib, o‘nga yaqin yangi ish o‘rmi yaratilgan. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan tayyor mebel mahsulotlari tuman aholisi

ehtiyojini qoplash bilan birga boshqa hududlarga ham yetkazib berilyapti.

Jasurbek Eshnazarov o‘tgan yili Termiz shahridagi “Tinchlik” sanoat va tadbirkorlik hududida metallarga ishlav berish loyihasini ishga tushirgandi. Korxona mahsulotlariga talab va buyurtmalar hajmi ortishi tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirishga undadi.

Shu tariqa tibbiyot muassasalari uchun mebel ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yildi. Bu yangi ish o‘rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish quvvati oshishi va korxona daromadlari ko‘payishiga yo‘l ochyapti.

Hududda tikuvchilik tarmog‘i izchil rivojlanib bormoqda. Tadbirkorlik subyekti tomonidan ichki bozor ehtiyojlari uchun ko‘rpa-to‘shak, yostiqlik, choynashab va turli to‘shamalar ishlab chiqarilaypti.

Import o‘rmini bosuvchi va eksport salohiyatiga ega mahalliy ishlab chiqarish Denov tumanida ham izchil rivojlanmoqda.

Xususan, tumanning Qo‘zichoqli mahallasi hududida joylashgan, 4 gektar maydonni egallagan Kichik sanoat va tadbirkorlik hududi bu borada muhim ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylanagan.

Bu yerda faoliyat boshlagan tadbirkorlar tomonidan zamonaviy va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Shulardan biri turli rusumdagi avtomobillar uchun o‘rindiqli g‘illolari tayyorlashga ixtisoslashgan korxonadir. Loyihaning umumiy qiymati 2 milliard 700 million so‘m bo‘lib, yiliga 1 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlash imkonini bor. Eng muhimi, bu yerda mahalliy aholi, xususan, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan xotin-qizlar bandligi ta‘minlangan. Loyiha nafaqat import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar hajmini oshirishga, balki aholi daromadlarini ko‘paytirish, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash va hududning eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan loyihalar hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim o‘rin tutmoqda.

Eng muhimi, ushbu tashabbuslar orqali aholi bandligi ta‘minlanib, ularning barqaror daromad manbalari shakllanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, hududlarda farovonlikni oshirishga qaratilgan amaliy islohotlar natijasidir.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Bugun dunyo juda shiddatli. Davlatlar va millatlar o‘rtasidagi raqobatning tub mezonlari butunlay o‘zgarmoqda. Mamlakatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvida “Bilinglar, endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi “Bilimlar iqtisodiyoti” hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda,” degan fikri zimmamizga ulkan mas’uliyat yukladi. Chunki bu shunchaki chiroyli ibora emas, bu — XXI asrning shafqatsiz va ayni paytda eng adolatli haqiqatidir.

HAQIQIY VORISLIK MAS’ULIYATI – BUGUNGI CHORLOVLARGA SHAYLIKDIR



Bahodir XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar
instituti rektori, professor

Agar biz bugun zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz bilan faqatgina faxrlanish hissi bilan cheklansak, tarix sahnasini boshqalar egallaydi. Haqiqiy vorislik o‘tgan ulug‘ zotlarning merosiga suyanib, millat genofondini asrash va uning intellektual salohiyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish, ya’ni bugungi sun’iy intellekt va raqamli dunyo chorlovlarga tayyor turishdir.

Prezidentimizning muloqotdagi tarixiy ma’ruzasi mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini tubdan transformatsiya qilish bo‘yicha biz, oliygoh rahbarlari uchun mukammal bir strategik yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’ruzada aytilgan va yiliga 500 ming nafar o‘g‘il-qizni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishni ko‘zda tutgan “Kelajak bilimlari ekotizimi” dasturi oliy ta’lim sohasidagi eski qoliplarni batamom buzib tashladi. Shuni ochiq aytishim kerakki, biz uzoq yillar davomida faqat o‘quv rejalari nani yangilash, qog‘ozbozlik va quruq nazariya bilan band bo‘lib qolgan edik. Davlatimiz rahbari esa tizimni mehnat bozori bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘laydigan kelajagi porloq mexanizmlarni taklif qildi.

Ayniqsa, “Kafolatlangan birinchi qadam” paketi hamda oliygoh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorlar uchun daromad va ijtimoiy soliqning bir yil davomida 1 foiz etib belgilanishi ta’lim va biznes integratsiyasida mutlaqo yangi sahifa ochmoqda.

Bu nima degani?

Bu oliy o‘quv yurtlari endi diplomli ihsizlarni emas, balki kafolatlangan ish o‘rniga ega, bozor talabiga to‘liq javob beradigan tayyor kadrlarni yetishtirish shart deganidir. Yashirishning hojati yo‘q, xususiy sektorga keng yo‘l ochilishi,

litsenziya shartlari soddalashtirilishi va xususiy texnikumlarga ilk bor davlat grantlari ajratilishi biz, davlat oliygohlari rahbarlarini ham uzoq yillik mudroqlilik va xotirjamlik uyqusidan uyg‘otdi. Tizimda haqiqiy, sog‘lom raqobat muhiti qaror topdi. Endi faqat an’anaviy auditoriya devorlari ichiga qamalib, quruq ma’ruzalar o‘qish bilan cheklana olmaymiz. Bugun oliygohlar faqat ta’lim maskani emas. Uning real ishlab chiqarish maydoni, startap ekotizimlari va yirik innovatsiyalar markaziga aylanishi davrning qat’iy talabidir.

Yurtimizda xorijiy tillarni mukammal biladigan yoshlar soni 650 mingdan oshgani ham faxrli holat. Taraqqiyot bir joyda to‘xtab turmaydi. Bugun til bilish yuqori daromad keltiruvchi, davlat iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi strategik qurolga aylandi. Prezidentimiz oldimizga mutlaqo yangi va o‘ta dolzarb vazifani qo‘ydi. Endilikda xorijiy tillarni biladigan yoshlarni jalb qilgan holda, boy madaniy merosimiz va turizm salohiyatimiz to‘g‘risida chet tillarida sifatli multimedia materiallarini tayyorlashni samarali tashkil



Munosabat

“Raqamli kontent” platformasi uchun mahsulot tayyorlash ham bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan hisoblanadi. Yoshlar salohiyatidan foydalanib “Media va raqamli kontent markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yishni rejalashtiryapmiz.

etishimiz kerak. Har yili 20 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan “Raqamli kontent” platformasining ishga tushirilishi eng katta imkoniyatdir. Xorijda ta’lim

olayotgan 150 mingdan ziyod yoshlarimiz salohiyatini mamlakatimiz eksport va turizm imkoniyatlariga yo‘naltirish, xalqaro sertifikat

olgan yoshlar xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish mexanizmi investitsiyaning eng to‘g‘ri va maqsadli ishlatish shakli ekanligini ko‘rsatdi. Til o‘rganish kreativ iqtisodiyotning yetakchi drayveriga aylanmoqda va institutimiz ushbu jarayonning oldingi safida bo‘lishi lozim. “Bilimlar iqtisodiyoti” hukmronlik qilayotgan hozirgi asrda sun’iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalarni chetlab o‘tib, raqobatbardoshlik haqida gapirish o‘z-o‘zini aldash bilan barobar. Prezidentimiz yoshlar uchun texnologik inqilob eshiklarini ochib berdi. “Raqamli hukumat” markazida superkompyuter klasterining ishga tushirilishi, uning quvvati kelgusi yilda 3 barobar oshirilishi va 20 ta oliygohda sun’iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilishi buning yaqqol isboti. Biz uchun muhim yangiliklardan biri 3-kurs talabalarining AT-parklarda “dual ta’lim” asosida o‘qishini davom ettirishi sanaladi. Bu esa talabaning bir vaqtda ham nazariyani o‘rganishi, ham real loyihalarda faoliyat yuritib, daromad



MEHNAT BOZORI VA TA’LIMNI BOG‘LOVCHI MARKAZ

Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvda bilim, kasb va texnologiya bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zaminini ekanini alohida ta’kidladi. Shu maqsadda har yili besh yuz ming o‘g‘il-qizning zamonaviy kasbga ega bo‘lishini ta’minlaydigan “Kelajak bilimlari ekotizimi”, “kasb vaucheri” tizimi, texnikumlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda xalqaro kasb sertifikatlarini joriy etish kabi qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Yangicha yondashuv

Bu strategik yo‘nalish mamlakatimizda so‘nggi yillardagi institutsional islohotlarda ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, kasbiy malakalarni xalqaro andozalar asosida baholash va mutaxassislar ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida tashkil etilgan Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi (NTQITC) buning yaqqol tasdiq‘idir.

Ish beruvchi bilan bitiruvchi o‘rtasidagi eng keng tarqalgan muammo diplom bilan real ko‘nikma o‘rtasidagi tafavutdir. Ya’ni nomzodning qo‘lida hujjat bor, biroq dastgoh oldida, elektr sxemasi yoki payvandlash

apparati bilan ishlab bo‘yicha malakasi hech qayerda tasdiqlanmagan. Aynan shu muammoni tizimli hal etish maqsadida malakani baholash markazlari faoliyatini tartibga soluvchi nizom ham tasdiqlandi. Bu butun mamlakat bo‘ylab kechayotgan islohotlarning kichik, lekin natijaga qaratilgan namunasidir. Ya’ni ikki hujjat mantiq va maqsadni birlashtirdi. Mehnat bozori va ta’lim tizimini bog‘lovchi yagona vosita — milliy malakalar tartibi joriy etiladi. Bu tartib sakiz bosqichli malaka darajalarini, har bir darajaga qo‘yiladigan bilim, ko‘nikma va mas’uliyat talablarini belgilaydi hamda Yevropa standartlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Boshqacha aytganda, endi “malaka” tushunchasi mavhum emas, va aniq

Bobomurod O‘TAYEV,
Milliy texnik malakani baholash
va malaka oshirish markazi direktori
o‘rinbosari

BIZ HAR TOMONLAMA TAYYORMIZ

Mamlakatimizda ilk bor bo‘lib o‘tadigan 58-Xalqaro kimyo olimpiadasi boshlanishiga sanoqli kunlar qoldi

Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tayyorlashning yangi tizimi joriy etilishi natijasida O‘zbekiston ilm-fan borasida xalqaro maydonda yetakchilar safidan mustahkam o‘rin egallay boshladi. 2024-yilda tashkil etilgan Fan olimpiadalari markazi qisqa vaqt ichida iqtidorli yoshlarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashning zamonaviy tizimini yo‘lga qo‘ydi.

Bugungi kunda mahalliy va xorijiy trenerlar ishtirokida kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari tashkil qilinmoqda. Xalqaro ekspertlar jalb etilayotgani, g‘oliblar va ularning ustozlarini rag‘batlantirish tizimida katta o‘zgarishlar qilingani yutuqlarimizda muhim omil bo‘lyapti.

Faxrlanarlisi, O‘zbekiston xalqaro fan olimpiadalarining ishtirokchisiga bo‘lib qolmay, faol mezbonga ham aylanmoqda. 2026-yil yurtimiz ta’lim tizimida “Xalqaro olimpiadalar yili” deb e’lon qilinishi sababli O‘zbekiston mezbonligida 8 ta xalqaro olimpiada o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Hozirgacha ularning to‘rttasi muvaffaqiyatli tashkil etildi.

Ayni paytda 10-19-iyul kunlari mamlakatimizda ilk bor tashkil etiladigan 58-Xalqaro kimyo olimpiadasiga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilyapti. Fan olimpiadalari markazi direktori To‘raboy Shermatovning ta’kidlashicha, xalqaro kimyo olimpiadasining boshqaruv va ilmiy qo‘mtalari allaqachon Toshkent shahrida. Olimpiadaning amaliy bosqichi o‘tkaziladigan O‘zbekiston Milliy universitetida nazariy va amaliy bosqichlar uchun nazorat materiallarini yakuniy ekspertizadan o‘tkazish, umuman, yakuniy tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Yirik tadbir munosabati bilan xalqaro platformalar ishga tushirildi, transport, ekskursiyalar, volontyorlar faoliyati bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rilyapti.



Olimpiadada dunyoning 96 ta davlatidan delegatsiyalar ishtirok etadi. 93 ta davlat jamoalari o‘z o‘quvchilari bilan, shuningdek, 3 ta davlat kuzatuvchi maqomida qatnashadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, 371 o‘quvchi, 185 nafar jamoa rahbari, o‘nlab xalqaro

“Raqamli kontent” platformasi uchun mahsulot tayyorlash ham bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan hisoblanadi. Yoshlar salohiyatidan foydalanib “Media va raqamli kontent markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yishni rejalashtiryapmiz. Markazda Samarqand, umuman, butun respublikamizning boy madaniy merosi, tarixiy obidalarini haqida ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, rus, turk, arab, xitoy, koreys, yapon singari 12 tilda professional video, audio va matnli kontentlar yaratiladi. Institutimiz bu borada yaxshi tajribaga ega. Ya’ni talaba va o‘qituvchilarimiz shu paytgacha ham Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari buyuk ajdodlarimiz haqida kontentlar tayyorlagan.

Davlatimiz rahbari e’lon qilgan “O‘zbekiston yoshlar ligasi” va “Tashabbuslar ofisi” loyihalarida talabalarimiz ishtiroki ta’minlanadi. Yoshlar marafoni doirasida shakllangan g‘oyalarni real loyiha darajasiga olib chiqish uchun institutning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan Inkubatsiya va startap markazining moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilanadi.

“Ustoz-talaba” va ko‘ngillilar korpusi faoliyati ham yo‘lga qo‘yiladi. Institutimiz talabalari ishtirokida maktab va texnikumlar o‘quvchilari hamda mahallalardagi yoshlarga xorijiy tillarni beg‘araz o‘rgatish bo‘yicha volontyorlar (ko‘ngillilar) korpusi tuziladi. Mahalladagi tengdoshlariga chet tilini o‘rgatib, ularning oliygohlarga o‘qishga kirishiga ko‘maklashgan talabalarimizni rag‘batlantirish, qonunda belgilangan tartibda magistraturada o‘qishini davom ettirish imkoniyatini yaratish choralarni ko‘ryapmiz. Ularni magistraturaga qabul qilishda imtiyozli ballarga tavsia etish tizimini adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilgan holda joriy etamiz.

Xorijda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarimizning ta’til davrida Samarqand davlat chet tillar institutida hamda viloyatimizdagi yirik korxonalarda stajirovka o‘tashlarini ta’minlaydigan raqamli muloqot tizimi yaratiladi. Shuningdek, xususiy sektor buyurtmalari asosida “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali dunyoning top-oliygohlariga yosh mutaxassislarimizni yuborish ko‘lamini ikki barabarga oshiramiz.

Hayot insonga bir marta beriladi va uning har bir soniyasini ilimga, ezgu ishlarga, xalq farovonligi va vatan taraqqiyotiga sarflash lozim. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor zamirida ana shu imkoniyatdan samarali foydalanishga qulay shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsad mujassam.

ekspert, kuzatuvchi va mehmonlar tashrif buyuradi. Delegatsiyalarning yurtimizga tashrifi 6-iyul kuniidan boshlandi va rasman 13-19-iyul kunlari 10 kunlik xalqaro olimpiada dasturi asosida nufuzli tadbir Toshkent shahrida start oladi. Olimpiadaning amaliy bosqichi yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekiston Milliy universitetining kimyo fakultetida tashkil etiladi.

Fakultetda 30 dan ortiq zamonaviy laboratoriya xonalari, har bir o‘quvchi uchun belgilangan jihozlar, reaktiv-reagentlar tayyorlab qo‘yilgan. Tashkiliy qo‘mita a’zolari esa olimpiada savollari original, hech qaysi davlatda ishlatilmagan bo‘lishi, shuningdek, ishtirok etuvchi barcha mamlakaming o‘quv dasturiga mos bo‘lishi kerak. Ayni shu talablar asosida shakllantirilayotgan savollar orasida O‘zbekistonning boy madaniy merosiga oidlari ham borligi quvonarli. Zero, o‘tgan yilgi Xalqaro kimyo olimpiadasida yurtimiz 96 mamlakat ichida oltinchi o‘rinni egallagan qayd qilgan.

Ma’lumot uchun aytish joizki, olimpiadada ishtirok etadigan 400 ga yaqin iqtidorli o‘quvchilar ikki bosqichli olimpiadaning yakuniy natijalari asosida oltin, kumush, bronza medallari hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishi, dunyoning nufuzli oliy ta’lim tashkilotlari grantlariga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Umid qilamizki, 58-Xalqaro kimyo olimpiadasi biz uchun nafaqat ilmiy musobaqa, balki O‘zbekistonning ta’lim tizimi, ilm-fan salohiyati va nufuzini namoyon etuvchi muhim xalqaro maydonga ham aylanadi.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

6

MEZON

2026-yil 8-iyul, 137-son

“Temur tuzuklari” –
milliy davlatchiligimiz
dasturi



BEBAHO VA ESKIRMAS DASTURULAMAL

Amir Temurning xavfsizlikni ta’minlash masalalari haqida qarashlari

G’anim lashkarini yengish qo’shinning ko’pligidan, mag’lub bo’lish esa sipohning kamligidan bo’lmaydi. Balki g’olib bo’lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir.

Agar ikki xatarlik (yoki) bir xatarlik ishini qilishga to’g’ri kelgudek bo’lsa, ikkovidan barobar qutulish chorasi topilmagach, bir xatarini ixtiyor etmoq kerak.

Amirlarim agar yarashtan so’z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko’rardim, agar urushga moyil bo’lsalar, uning naf’ va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko’rardim, qaysi biri foydaliroq bo’lsa, shuni ixtiyor qilardim. Sipohni ikkilantiradigan (turumsiz) kengashni eshitishdan saqlanardim. Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishini kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so’zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so’z olib kengash so’rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o’ylab ko’rgach, to’g’ri va savoblirrog’ini tanlab olardim.

Yuz ming otliq askar qila olmagan ishini bir to’g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

Kimki menga kelib qo’shilsa — ulug’lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo’lsa — yiqiladi.

Jangda yengish-yengilish ishi taqdir pardasi ostida yashirin.

Shijoatli kishilarni do’st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardovlaydi.

Do’st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiyhlarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo’lgan jonlarini foniyo dunyo moli uchun sotadilar. O’zlarini ma’raka-maydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g’anim sipohidan biror odam o’z valine’matiga sidqidildan xizmat qilib, urush kunlarida menga qarshi qilich ko’targan bo’lsa ham unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko’rsatdim, qoshimga (panoh istab) kelganda, uni qadrlab, haqiqat bilan xizmat qilishiga ishonchim.

Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtda o’z sohibidan yuz o’girib, mening oldimga kelgan bo’lsa, unday odamni o’zimga eng yomon dushman deb bildim.

Bo’riboy Ahmedovning “Amir Temur o’gitlari” kitobidan

Hozirgi kunga qadar “Birinchii kitobim” loyihasida
208 nafar yoshning birinchi kitobi ko’p ming nusxada chop etilib, badiiy ijod
shaydolari qo’liga yetib bordi.



Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat
xodimi, Qoraqalpog‘iston
xalq shoiri

Faxr

Tarixi uch ming yildan ziyod oliyshon davlat,
Dunyoning kamoliga oyna milliy fazilat.
El baxtini ko‘zlaydi, xalq baxtini o‘ylaydi,
Qadriyati sarbaland, xazinasi badavlat.

Odamlarga g‘amxo‘rlik, chinakam elparvarlik
Yurt so‘ragan zotlardan meros ulug‘vor g‘oya.
Xalqparvarlik aslida asl vatanparvarlik —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

Kuchli davlat, jamiyat bamisli ota-ona
Farzandlar baxti uchun jamg‘aradi sarmoya.
Hamisha Humo qushi el boshida parvona —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

Iqtisodu ilmu fan, madaniyatu ijod
Buyuk Uyg‘onishlarning zamonasiga doya.
Adolatu diyonat, vijdon, imon-e‘tiqod —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

Yovuz yovlar zulmidan xalqni aylagan ozod
Sohibqiron panohi dunyo boshiga soya.
Buyuk Turonzaminda elu yurt baxtiyor-shod —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

Temuriy amirzoda yulduzlarga mahliyo
Ulug‘bek kashf aylagan samoga pillapoya.
Xalq boshiga oftobdek ko‘kdan taralgan ziyo,
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

O‘zbekiston Vatanim, shonu shavkatli diyor,
Bu yurtida baxt-saodat aslo topmas nihoya.
Yo‘lboshchimiz xalqqa yor, Yo‘lboshchiga Xudo yor —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.

Vaqt o‘tar, shamol esar, xalq tog‘dek cho‘ng, basavlat,
Xalq davlat uchun tayanch, davlat xalq uchun qoya.
Xalq badavlat bo‘lgan davr davlat bo‘lar badavlat —
Ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya.



Ijtimoiy himoya

KO‘ZI CHAQNOQ, QALBI UYG‘OQ YOSHLIK

Bir mo’ysafiddan umr nima deb so’rashganida, “Umr chopib ketayotgan kiyikning soyasida soyalamoqdir”, deb javob bergan ekan. Chopqir, shoshqin hayotimizga berilgan bu ta’rif qalbimizga umid, tig’iz umrimizda yaxshilikka ulgurish fursatini eslatadi, aslida. Har yili Jizzax viloyatida o’tkaziladigan Zomin seminari yoshlar uchun shu oltin fursatni, go’zal davronlarni qadrlash, o’zini namoyon etish imkonini beradi.



Zomin seminari

Mamlakat adabiy hayotida ayniqsa, yosh ijodkorlar uchun nufuzli Zomin seminari mana bir necha yildirki, ne-ne ustozlari shogirdlarning yuraklarini jimirlatib kelgan yoshlarga imkoniyat yaratish yo’lida o’ylangan xayrli tashabbus, ulkan adabiyot yo’lida yoshlarga ilk dovon bo’lib kelmog’da.

1997-yildan buyon tashkil etib kelinayotgan mazkur seminar yillar davomida yuzlab yosh iste’dodlarni kashf etish barobarida, ular uchun bir umrlik saboqlarni ham berib kelmog’da.

Bundan yigirma muqaddam Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azim, Azim Suyun, Muhammad Yusuf kabi ustozlar sabog’ini tinglash Iqbol Mirzo, Farida Afro’z, Salim Ashur, Zebo Mirzo kabi o’sha davrda navqiron shoirilarga nasib etgan bo’lsa, ulardan so’ng G’ayrat Majid, Nodir Jonuzoq, Shodmonqul Salom, Guljamol Asqarova, Muhiddin Abdusamad, Ozoda Bekmurodova, Shuhrat Orif, Nosir Jo’rayev, Dilrabo Mingboyeva, Behzod Fazliddin, Adiba Umirova kabi o’rta avlod vakillari ham munosib izdosh sifatida bugun o’z yo’li va so’ziga egadir.

Aytish mumkinki, bugun iste’dodli yosh ijodkorlarning an’anaviy Zomin seminari o’z nomi va darajasi, mavqei va nufuzi yuksak darajaga ko’tarildi. Ayni paytda yosh ijodkorlar Bobur Elmurod, Javlon Jovliyev, Dadaxon Muhammadiyev, Alisher Boymurod, Anvar Botir, Shahriyor Shavkat, Shohsanam Nishonova, Feruza

Xayrullayeva, Suhrob Ziyo, Kumush Abdusalomova, Nurmuhammad Aziz, Jamoliddin Badalov, Xurshid Abdurashid, Gulruh Xudoyorova, Alisher Sabriy kabi yoshlar so’z maydonida o’z o’quvchilarini topib ulgurdi. Shu bilan birga, Madina Norchayeva, Nilufar Ergasheva, Parizoda Ro’ziboyeva, Latofat Amirova, Sanjar Toshbekov, Faxriyor Baxtiyorov, Qobiljon Shermatov, Abbos Xurramovdek iqtidorli o’g’lonlarimiz aynan Zomin seminarida kashf etilgan. Ular bugun davlatimizning nufuzli Zulfiya nomidagi davlat mukofoti hamda “Mard o’g’lon” mukofoti sovrindorlari bo’ldi.

Shuningdek, anjumanda ishtirok etgan yosh ijodkorlar ijodi aks etgan ilk kitoblar har yili Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etiladi. Bu kitoblar yoshlar uchun katta ishonch va madad bo’lmoqda. Hozirgi kunga qadar “Birinchii kitobim” loyihasida 208 nafar yoshning birinchi kitobi ko’p ming nusxada chop etilib, badiiy ijod shaydolari qo’liga yetib bordi. O’tgan yili seminar ishtirokchilari ijodidan tuzilgan 12 ta kitob dunyo yuzini ko’rdi.

Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo’nalishlar bo’yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo’yicha davlat dasturi to’g’risida”gi farmoni asosida bu yil ham iqtidorli yoshlarni topish va rag’batlantirish maqsadida mazkur ezgu harakat ish boshladi. Bu yilgi Zomin seminari jami 136 nafar yoshni qamrab olgan bo’lsa, ular orasida mamlakatimizdagi Ijod maktabi o’quvchilari hamda “Vatandosh yozuvchi” loyihasi asosida saralab olingan, xorijdagi vatandosh yoshlarimiz ham ishtirok etmoqda.

Bugun tongdan yana bu ulkan karvon yo’lga tushdi. Jizzax viloyatining so’lim tog’lari bag’riga chorlayotgan seminar bu gal ham yangi iste’dodlarni kashf etish arafasida. Muhimi, she’rlarini bir quchoq guldek tutib hayajon ichra she’r, hikoya o’qigan singillarimizdan kun kelib Halima Xudoyberdiyeva, Saidata Zunnunovalar, ko’zi chaqnoq, qalbi uyg’oq ukalarimizdan esa Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Tog’ay Murod, Xayriddin Sulton, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyiddek so’z zargarlari chiqishiga ishonamiz...

Nargiza ASADOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yosh ijodkorlar bilan ishlash bo‘limi
boshlig‘i

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746. 29609 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musabihli: Malohat Mingboyeva Dizayner: Xurshid Abdullayev
MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60	Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy
Qabulxona: (71) 233-56-33 E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz Be6-cafir: www.yuz.uz; (71) 233-47-05		